

EDITORIAL LEADERSHIP**Editor-in-Chief:**

Temir Yusupov – DSc (Technology), Professor

Deputy Editor:

Djamila Isamatova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Branch of the Gubkin Russian State University of Oil and Gas

Editorial Board:

Farkhod Chorshanbiyev – DSc (Agriculture), Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

Firuz Rustambekova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Gulmira Irgasheva – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Javlon Jurayev – PhD (Agriculture), Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

Khusan Niyozov – PhD (Technology), Senior Lecturer
Tashkent Institute of Chemical Technology

Makhbuba Sharipova – PhD (Philology), Associate Professor
Bukhara State University

Mokhigul Otamirzaeva – PhD (Geography)
University of Business and Science

Muyassar Navruzova – PhD (Philology), Associate Professor
Bukhara State University

Oybek Ismailov – DSc (Technology), Professor, *Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*


Shukhrat Tukhtaev – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Umid Mukhitdinov – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Vasila Umarova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Yakubjon Yuldashev – PhD (Agriculture), Associate Professor
Tashkent State Agrarian University


Sherzamin Abdurasulov – PhD (Technology), Senior Researcher
Tashkent State Transport University



THE TRANSLATION OF REALIA IN TRAVEL AND PILGRIMAGE NARRATIVES

Madinabonu Madiyorova¹.

¹ Independent Researcher, Uzbekistan State World Languages University.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19723642>

Key words: *realia, travel texts, pilgrimage texts, linguoculture, translation strategies, pragmatic adequacy, culture-specific items, discourse analysis.*

ABSTRACT

The purpose of this study is to analyze the characteristics of translating realia in travel and pilgrimage texts and to identify effective strategies for their adequate rendering. The research material consists of 36 realia units selected from texts related to the Khorezm region. The analysis is conducted using comparative-descriptive, contextual, componential, and discursive-pragmatic approaches. The findings demonstrate that transliteration, descriptive translation, functional equivalents, and combined strategies vary in effectiveness depending on the type of realia. Specifically, preserving form is essential for toponymic units, conveying semantic and evaluative layers is crucial for religious-ritual terms, and descriptive approaches are more effective for ethnographic items. The study also reveals that pragmatic differences between travel and pilgrimage texts significantly influence translation choices. In conclusion, translating realia requires a comprehensive approach aimed at ensuring communicative adequacy.

SAYOHAT VA ZIYORATGA OID MATNLARDA REALIYALARNI TARJIMA QILISH

Kalit soʻzlar: *realia, sayohat matnlari, ziyorat matnlari, lingvomadaniyat, tarjima strategiyalari, pragmatik adekvatlik, madaniy xoslangan birliklar, diskurs tahlili.*

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi sayohat va ziyorat matnlarida uchraydigan realialarning tarjima jarayonidagi xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularni adekvat ifodalash strategiyalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida Xorazm hududiga oid matnlardan tanlab olingan 36 ta realia birligi xizmat qildi. Tahlil qiyosiy-tavsifiy, kontekstual, komponent va diskursiv-pragmatik yondashuvlar asosida olib borildi. Natijalar transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional muqobil va kombinatsiyalangan strategiyalar turli realia turlari uchun turlicha samaradorlikka ega ekanini koʻrsatdi. Xususan, toponimik birliklarda shaklni saqlash, diniy-marosimiy birliklarda semantik va baholovchi qatlamni uzatish, etnografik birliklarda esa izohli yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, sayohat va ziyorat matnlari oʻrtasidagi pragmatik farqlar tarjima strategiyasini tanlashda hal qiluvchi omil ekani aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, realialarni tarjima qilish kommunikativ adekvatlikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan kompleks yondashuvni talab etadi.

Sayohat va ziyorat matnlari tarjimasini zamonaviy filologiyada lingvomadaniyat, pragmatika hamda tarjima nazariyasining tutashgan nuqtasida oʻrganiladigan murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur turdagi matnlar bir vaqtning oʻzida informativ, yoʻnaltiruvchi, baholovchi va interpretativ funksiyalarni bajaradi, yaʼni ular nafaqat maʼlumot yetkazadi, balki manzilning maʼnaviy, tarixiy va madaniy qadrini talqin qiladi. Shu bois ushbu matnlarda qoʻllaniladigan realialar oddiy nominativ birliklar sifatida emas, balki muayyan madaniy tajriba, urf-odatlar tizimi, makon xotirasi va ijtimoiy kommunikatsiya modelining ifodasi sifatida namoyon boʻladi. Tarjimashunoslikda realia muammosi, avvalo, ekvivalenti mavjud boʻlmagan birliklar hamda madaniy jihatdan xoslangan nominatsiyalar bilan bogʻliq holda talqin etiladi. Vlahov va Florin realialarni milliy turmush, tarix va madaniyat bilan uzviy bogʻliq boʻlgan, tarjimada toʻliq ekvivalent topilishi qiyin birliklar sifatida izohlaydi [2, B.47]. Newmark esa bunday birliklarni “culture-specific items” doirasida koʻrib chiqib, ularni tarjima qilish jarayonida kontekst va adresat omillarining ustuvor ahamiyatini taʼkidlaydi [8, B.95]. Ayniqsa, sayohat va ziyorat matnlarida realia muammosi alohida dolzarflik kasb etadi, chunki bunday matnlarda ziyoratgoh, maqbara, qadamjo, mahalla, ayvon, darvozaxona, tuxum barak kabi birliklar obyektning madaniy identifikatsiyasini shakllantiradi.

Ushbu birliklar faqat so‘zma-so‘z yoki lug‘aviy muqobillar asosida tarjima qilingan taqdirda, matnning informativ funksiyasi qisman saqlanishi mumkin, biroq uning identifikatsion, baholovchi va orientatsion qatlamlari sezilarli darajada zaiflashadi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sayohat va ziyorat matnlarida uchraydigan realialarning tarjimadagi funksional xulqini tahlil qilish, ularni adekvat ifodalashda samarali strategiyalarni aniqlash hamda amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyektini sayohat va ziyorat matnlari tashkil etsa, predmetini ushbu matnlarda qo‘llangan realialarning semantik, lingvomadaniy va pragmatik jihatdan tarjima qilinish usullari tashkil etadi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: realia muammosining o‘rganilganlik darajasini aniqlash; MDH mamlakatlari hamda O‘zbekiston tarjimashunoslari qarashlarini qiyosiy tahlil qilish; sayohat va ziyorat matnlariga xos realia turlarini tasniflash; ularni tarjima qilish strategiyalarini konkret misollar asosida baholash; olingan natijalarni fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasi doirasida qo‘llash imkoniyatlarini asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Realia va milliy-madaniy birliklar muammosi MDH hududidagi tarjimashunos olimlar tomonidan izchil o‘rganilgan. Jumladan, Barkhudarov ekvivalenti mavjud bo‘lmagan leksika hamda milliy xoslangan birliklarning tarjimada turli transformatsiyalar orqali ifodalanishini asoslab bergan [1, B.184]. Vlahov va Florin esa realialarning tasnifi hamda ularni tarjima qilish usullarini tizimlashtirib, transliteratsiya, izohli tarjima va funksional muqobil kabi strategiyalarning imkoniyatlarini tahlil qilgan [2, B.88]. Komissarov adekvatlikni matnning kommunikativ vazifasi bilan bog‘lab, tarjimon qarori nafaqat leksik darajada, balki matnning umumiy kommunikativ ta‘siri asosida baholanishi lozimligini ta‘kidlaydi [3, B.115]. Latyshev esa tarjima texnologiyasi nuqtai nazaridan pragmatik moslik va funksional aniqlikni ustuvor mezonlar sifatida belgilaydi [4, B.73].

O‘zbek tarjimashunosligida ham ushbu yo‘nalish muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Xususan, G‘. Salomov tarjima nazariyasining umumiy tamoyillarini ishlab chiqib, milliy-madaniy birliklar tarjimasida mazmun va uslub uyg‘unligini saqlash zarurligini asoslagan [5, 29-b.; 6, 41-b.]. I. G‘afurov, O. Mo‘minov va N. Qambarov kabi olimlar esa tarjimada ekvivalentlik, adekvatlik, stilistik hamda pragmatik moslikning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib, realia va lingvomadaniy birliklar bilan ishlashda kombinatsiyalangan yondashuvning samaradorligini ta‘kidlaydilar [7, 96-b.]. Shunday qilib, mazkur muammo xalqaro va milliy ilmiy maktablarda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan sayohat va ziyorat matnlaridagi realialarni mustaqil tadqiqot obyektiga aylantirgan holda tizimli tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. G‘arb tarjimashunosligida Nida va Taber dinamik ekvivalentlik nazariyasini, Newmark madaniy xoslangan birliklar konsepsiyasini, Venuti esa domestikatsiya va foreignizatsiya strategiyalarini ishlab chiqqan [8, B.82]. House tarjima sifatini baholashda pragmatik va funksional moslik mezonlariga alohida e‘tibor qaratadi [11, B.21]. Mazkur nazariy yondashuvlar sayohat va ziyorat matnlaridagi realialarni tahlil qilish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi. Tadqiqot materiali sifatida Xorazm hududiga oid sayohat va ziyorat matnlaridan tanlab olingan 36 ta realia birligi xizmat qiladi. Ushbu birliklar toponimik, diniy-marosimiy, etnografik, gastronomik va me‘moriy guruhlariga ajratildi. Tahlil jarayonida qiyosiy-tavsifiy metod, kontekstual talqin, komponent tahlili hamda diskursiv-pragmatik yondashuvlardan foydalanildi. Har bir birlik bo‘yicha manba tilidagi semantik yadro, madaniy yuklama, pragmatik vazifa hamda maqsadli auditoriya tomonidan anglash darajasi kompleks tarzda baholandi.

Jadval 1

Realia masalasining o‘rganilganlik darajasi.

Ilmiy maktab	Vakillar	Asosiy ilmiy yo‘nalish
MDH tarjimashunosligi	L.Barkhudarov, S.Vlahov, S.Florin, V.Komissarov, L.Latyshev	Ekvivalentsiz leksika, realialar tasnifi, transformatsiya va adekvatlik mezonlari
O‘zbekiston tarjimashunosligi	G‘.Salomov, I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov	Tarjima nazariyasi, milliy-madaniy qatlam, uslubiy va pragmatik moslik
Xalqaro nazariy maktab	E.Nida, P.Newmark, L.Venuti, J.House	Dinamik ekvivalentlik, <i>cultural items</i> , domestikatsiya/ foreignizatsiya, sifat baholashi

NATIJARLAR

Tadqiqot materiali sifatida tanlab olingan birliklar tahlili shuni ko'rsatdiki, sayohat va ziyorat matnlarida realialarni tarjima qilishda yagona universal usul mavjud emas. O'rganilgan 36 ta realia birligining 12 tasida transliteratsiya va qisqa izoh kombinatsiyasi, 9 tasida tavsifiy tarjima, 7 tasida funksional muqobil, 8 tasida esa kombinatsiyalangan strategiya eng samarali natijani ta'minlagan. Bu esa, ayniqsa, pragmatik yuklamasi yuqori bo'lgan birliklarda milliy shaklni saqlagan holda, qabul qiluvchi auditoriya uchun anglashni yengillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Toponimik va me'moriy birliklarda, odatda, nominativ shaklni saqlash ustuvor hisoblanadi. Jumladan, *Ichan-Qal'a*, *Pahlavon Mahmud maqbarasi*, *Ota darvoza* kabi nomlar turistik identifikatsiya funksiyasini bajaradi. Ushbu birliklar to'liq substitutsiya qilingan taqdirda, hududning tarixiy-madaniy qiyofasi xiralashadi. Shu bois *Ichan-Qal'a – the walled inner town of Khiva*, *Ota darvoza – Ota Darvoza gate* kabi variantlar adekvat tarjima yechimi sifatida baholanadi.

Diniy-marosimiy birliklarda semantik va baholovchi qatlamlar o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. *Ziyoratgoh*, *qadamjo*, *tabarruk joy*, *duo qilish* kabi birliklarni oddiygina *shrine*, *sacred place*, *prayer* kabi umumlashtirilgan muqobillar bilan ifodalash ko'pincha yetarli bo'lmaydi. Kontekstga mos ravishda *pilgrimage site*, *revered site*, *to recite a prayer*, *to offer a blessing* kabi variantlardan foydalanish matnning ma'naviy-pragmatik ohangini yanada aniqroq aks ettiradi.

Etnografik va gastronomik realialarda tavsifiy izohning samaradorligi yuqori ekanligi kuzatildi. Xususan, *mahalla* birligi nafaqat hududiy birlikni, balki ijtimoiy hamjamiyatni ham anglatadi. Shu bois *neighborhood community* yoki *neighborhood community council* kabi izohli tarjimalar maqsadga muvofiq hisoblanadi. *Tuxum barak*, *shivit oshi*, *osh* kabi gastronomik birliklarda esa asl nomni saqlagan holda tarkibiy yoki funksional izoh berish qabul qiluvchi uchun anglash jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatdiki, sayohat matnlari va ziyorat matnlari o'rtasida muhim pragmatik tafovut mavjud. Sayohat matnlarida informativlik va orientatsionlik ustuvor bo'lsa, ziyorat matnlarida hurmat, etik me'yorlar va baholovchi semantika yetakchi rol o'ynaydi. Tarjima strategiyasi aynan ushbu funksional farqlarni inobatga olgan holda tanlanganda, matnning tabiiyligi va kommunikativ samaradorligi ta'minlanadi.

Jadval 2

Sayohat va ziyorat matnlaridagi realialar uchun tavsiya etilgan strategiyalar

Realia turi	Namuna	Asosiy strategiya	Kutiladigan natija
Toponimik	Ichan-Qal'a, Ota darvoza	Transliteratsiya va qisqa tavsif	Tarixiy identifikatsiya saqlanadi
Diniy-marosimiy	ziyoratgoh, qadamjo, duo	Kombinatsiyalangan tarjima	Muqaddaslik va pragma-tik ohang tiklanadi
Etnografik	mahalla, ayvon	Izohli tarjima	Madaniy fon tushunarli bo'ladi
Gastronomik	tukhum barak, shivit oshi	Nomni saqlash va tarkibiy izoh	Milliy kolorit va ma'no birga uzatiladi

MUHOKAMA

Olingan natijalar MDH mamlakatlari va O'zbekiston tarjimashunos olimlari tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni sayohat va ziyorat matnlari materiali asosida yanada aniqlashtirish imkonini beradi. Avvalo, realia muammosi faqat leksik ekvivalent topish bilan cheklanmasligi yana bir bor tasdiqlandi. Ushbu birliklar orqali nafaqat semantik yadro, balki milliy xotira, hududiy identitet va madaniy-baholovchi komponentlar ham tarjimada uzatiladi. Shu nuqtai nazardan, Komissarov va House tomonidan asoslangan kommunikativ adekvatlik mezoni sayohat va ziyorat matnlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi [3, B.116; 11, B.56].

Ikkinchidan, sayohat va ziyorat matnlarida realialarning funksional yuklamasi turlicha namoyon bo'ladi. Turistik qo'llanmalarda realialar asosan identifikatsiya va jozibadorlikni ta'minlasa, ziyorat matnlarida ular identifikatsiya bilan bir qatorda qadriyat, hurmat va etik semantikani ham ifodalaydi.

Shu bois bir xil realia turli diskurs va janrlarda turlicha tarjima qilinishi mumkin. Masalan, *ziyoratgoh* birligini muzey qo‘llanmasida *shrine* yoki *pilgrimage site* tarzida ifodalash mumkin bo‘lsa, ziyorat kitobchalarida *pilgrimage site* yoki *sacred shrine complex* kabi variantlar uning kommunikativ vazifasini yanada aniqroq aks ettiradi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasi uchun muhim amaliy asos yaratadi. Ilmiy nuqtai nazardan, sayohat va ziyorat matnlarida uchraydigan realialar asosida mini-korpus hamda standartlashtirilgan ekvivalentlar ro‘yxatini shakllantirish imkoniyati mavjud. Ta‘lim jarayonida mazkur natijalar tarjima nazariyasi, lingvomadaniyat va maxsus tarjima kurslarida keys sifatida qo‘llanilishi mumkin. Amaliy jihatdan esa muzey yorliqlari, audio-gid matnlari, sayyohlik portallari va ziyorat qo‘llanmalari uchun tavsiya etiladigan ekvivalentlar tizimini ishlab chiqish mumkin.

To‘rtinchidan, mazkur yondashuv lingvodidaktik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. U talabalarga realia bilan ishlash, tarjima jarayonida so‘zma-so‘z va adekvat tarjima o‘rtasidagi farqni anglash, madaniy sharhni me‘yorida berish, auditoriya omilini hisobga olish hamda tarjima muharrirligi bosqichini tizimli joriy etish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy filologik yo‘nalishlarda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sayohat va ziyorat matnlarini tarjima qilishda realialar markaziy birliklardan biri hisoblanadi va ularning adekvat tarjimasi semantik, lingvomadaniy hamda pragmatik omillarning kompleks tahlilini talab etadi. Mavzuning o‘rganilganlik darajasi ushbu muammo MDH mamlakatlari va O‘zbekiston tarjimashunoslari tomonidan izchil tadqiq etilganini ko‘rsatsa-da, aynan turistik va ziyorat diskursi doirasida maxsus, tizimli tadqiqotlar yetarli emasligini namoyon etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, transliteratsiya, izohli tarjima, funksional muqobil va kombinatsiyalangan strategiyalar sayohat va ziyorat matnlarida eng samarali usullar sifatida aniqlangan. Biroq ushbu strategiyalarni tanlashda realianing turi, matn janri, qabul qiluvchi auditoriyaning tayyorgarlik darajasi va pragmatik vazifa hal qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari asosida turistik va ziyorat kontenti uchun tavsiya etilgan ekvivalentlar bankini yaratish, tarjimonlar va gidlar uchun qisqa metodik qo‘llanma ishlab chiqish, oliy ta‘lim tizimida maxsus seminarlar tashkil etish hamda muzey, portal va audio-gid matnlarini tahrir qilish mezonlarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Kelgusida ushbu yo‘nalishda parallel korpus asosida kengroq materialni o‘rganish, realialarning qabul qiluvchi auditoriyaga ta‘sirini empirik usullar orqali tekshirish hamda raqamli tarjima vositalari uchun lingvomadaniy tavsiyalar modullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot sayohat va ziyorat matnlarida realialarning tarjima jarayonidagi o‘rni va funksional xususiyatlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilishga qaratildi. Tahlillar natijasida realialar ushbu turdagi diskursda markaziy semantik va lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ular orqali nafaqat nominativ ma‘no, balki milliy xotira, hududiy identitet, ijtimoiy munosabatlar modeli hamda baholovchi semantika uzatiladi. Shu bois realialarni tarjima qilish jarayoni faqat leksik muqobil tanlash bilan cheklanmay, balki matnning umumiy kommunikativ vazifasi, pragmatik yo‘nalishi va qabul qiluvchi auditoriyaning idrok darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot doirasida o‘rganilgan 36 ta realia birligi asosida transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional muqobil va kombinatsiyalangan strategiyalarning samaradorligi qiyosiy baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yagona universal tarjima usuli mavjud emas va har bir realia turi o‘zining semantik yuklamasi hamda pragmatik vazifasiga muvofiq tarjima strategiyasini talab qiladi. Xususan, toponimik va me‘moriy birliklarda nominativ shaklni saqlash ustuvor bo‘lsa, diniy-marosimiy birliklarda baholovchi va ma‘naviy komponentlarni aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Etnografik va gastronomik birliklarda esa tavsifiy izoh yoki kombinatsiyalangan usullar qabul qiluvchi uchun anglashni sezilarli darajada yengillashtiradi. Shuningdek, sayohat va ziyorat matnlari o‘rtasidagi pragmatik tafovutlar aniqlanib, ularning tarjima strategiyasini tanlashda hal qiluvchi omil ekanligi ko‘rsatildi. Sayohat matnlarida informativlik va orientatsionlik ustuvor bo‘lsa, ziyorat matnlarida hurmat, etik me‘yorlar va qadriyatga yo‘naltirilgan semantika yetakchi rol o‘ynaydi.

Bu esa tarjimonning qaror qabul qilish jarayonida kommunikativ adekvatlik mezonini ustuvor qo‘llash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy jihatdan, ular realia muammosining lingvomadaniy va pragmatik qirralarini aniqlashtiradi hamda sayohat va ziyorat diskursida ushbu birliklarning o‘ziga xos funksional rolini asoslaydi. Amaliy jihatdan esa olingan xulosalar tarjimonlar, gidlar, kontent yaratuvchilar hamda ta’lim jarayoni uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalar bevosita olingan natijalarga tayanadi. Xususan, sayohat va ziyorat matnlarini tarjima qilishda realialar uchun standartlashtirilgan ekvivalentlar bankini yaratish zarurati asoslandi, chunki bu tarjima jarayonida izchillik va sifatni ta’minlaydi. Shuningdek, tarjimonlar va gidlar faoliyatida qo‘llash uchun qisqa metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi, bunda realialarni tarjima qilish strategiyalari kontekstga mos holda tizimlashtiriladi. Ta’lim jarayonida esa realia bilan ishlash bo‘yicha maxsus seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni joriy etish, talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, muzey yorliqlari, audio-gid matnlari va sayyohlik portallari uchun tarjima mezonlarini ishlab chiqish realialarning adekvat va kommunikativ jihatdan samarali ifodalanishini ta’minlaydi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda parallel korpus asosida kengroq materialni o‘rganish hamda realialarning qabul qiluvchi auditoriyaga ta’sirini empirik jihatdan tekshirish orqali tadqiqot natijalarini yanada chuqurlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бархударов, Л. С. Язык и перевод. Москва: Международные отношения, 1975.
2. Влахов, С., Флорин, С. Непереводимое в переводе. Москва: Международные отношения, 1980.
3. Комиссаров, В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва: Высшая школа, 1990.
4. Латышев, Л. К. Технология перевода. Москва: Академия, 2005.
5. Salomov, G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1978.
6. Salomov, G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1983.
7. G'afurov, I., Mo'minov, O., & Qambarov, N. Tarjima nazariyasi. Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012.
8. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
9. Nida, E. A., & Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.
10. Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. 2nd ed. London–New York: Routledge, 2008.
11. House, J. Translation Quality Assessment: Past and Present. London: Routledge, 2015.
12. Dann, G. M. S. The Language of Tourism: A Sociolinguistic Perspective. Wallingford: CAB International, 1996.

ILMIY TAQRIZ

Mazkur maqola zamonaviy tarjimashunoslikning eng murakkab va izchil o'rganilayotgan yo'nalishlaridan biri – sayohat hamda ziyorat matnlarida realiyalarning ifodalanish xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra yuksak dolzarblik kasb etadi. Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan hozirgi davrda turizm industriyasi, xususan, ziyorat turizmi diskursining kengayib borishi sohaga oid matnlarni nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy va pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilishni taqozo etmoqda. Muallif o'z tadqiqotida madaniyatlararo muloqotning o'ziga xos ko'prigi bo'lgan realiyalarni tarjima qilish strategiyalarini aniqlashga intilgan va bu borada mavjud nazariy qarashlarni muvaffaqiyatli umumlashtirgan.

Maqolaning ilmiy yangiligi, avvalo, sayohat va ziyorat matnlaridagi realiyalarni alohida, tizimli tadqiqot obyekti sifatida ajratib ko'rsatganligida namoyon bo'ladi. Muallif nazariy xulosalarni shunchaki bayon etish bilan cheklanmay, balki ularni aniq empirik materiallar, xususan, Xorazm vohasining tarixiy-madaniy muhitiga oid 36 ta realia birligining qiyosiy tahlili orqali asoslab bergan. Ushbu birliklarning turli tillardagi ifodalanish darajasi va tarjima strategiyalarining samaradorligi aniq misollar yordamida ochib berilgan. Bunday yondashuv tadqiqotning ilmiy qiymatini oshirish bilan birga, milliy koloritni aks ettiruvchi so'zlarning tarjimada pragmatik ta'sir kuchini saqlab qolish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Ishning amaliy ahamiyati ham yetarlicha yuqori baholanishi lozim. Tadqiqot davomida olingan natijalar va taklif etilgan metodlar nafaqat tarjimashunoslar, balki amaliyotchi tarjimonlar, gid-kuzatuvchilar hamda turistik kontent yaratuvchilar uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, ziyorat turizmiga oid realiyalar uchun ekvivalentlar bankini shakllantirish, soha mutaxassislari uchun maxsus o'quv kurslari va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish imkoniyati maqolaning amaliy qiymatini yanada oshiradi. Tadqiqot metodologiyasi izchil va ilmiy asoslangan bo'lib, qiyosiy-tavsifiy tahlil, kontekstual va komponent tahlil hamda diskursiv-pragmatik metodlardan kompleks foydalanilgani olingan natijalarning ishonchliligini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotni yanada takomillashtirish maqsadida kelgusida tahlilning statistik ko'lamlarini kengaytirish va xalqaro tajribalar bilan qiyosiy parallellarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Terminologik bazani yanada chuqurlashtirish maqolaning ilmiy salmog'ini yanada oshirgan bo'lar edi. Umuman olganda, maqola mantiqan izchil, ilmiy jihatdan asoslangan va sohaning dolzarb muammolariga yechim izlagan sifatli tadqiqot ishi sifatida baholanadi. Undagi ilmiy xulosalar va taklif etilgan yondashuvlar tarjimashunoslik fani rivojiga muayyan hissa qo'shadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur maqolani kichik tahririy tuzatishlar bilan ilmiy jurnalda nashr etishga tavsiya etish mumkin.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Research & Innovations* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.